

MAQTANCHOQ G‘OZ

Hikoya

Soy bo‘yida hech kimni mensimaydigan maqtanchoq G‘oz bo‘lib, u dynyoda o‘zini eng go‘zal, eng qaddi-qomati raso, aslzoda qush deb bilardi. O‘zicha tumayu laylaklami cho‘p oyoqlar, o‘rdaklami maymoqlar, oqqushlami esa beso‘naqay parrandalar deb atardi. Ertalabdan kechgacha soy bo‘yda viqor bilan kezishu uyida ko‘zguga qarab, husniga zeb berishdan boshqa ish qilmasdi.

Kunlardan bir kun u tarki odat amri mahol deganlaridek, soy bo‘yida nozlanib sayr qilib borarkan, osmonda turnalaming qur-qurlab uchib o‘tayotganligini eshitibdi. Qanotlarini quyosh nuridan pana qilib, ularga qarabdi va: “Ha, cho‘p oyoqlar, oyoqlaringizni chivinning oyog‘idek qilib uchib ketyapsizlarmi, ehtiyot bo‘linglar, yana shamolda sinib ketmasin!”-deya g‘oqqillab kulibdi. Shu payt oyoqlari soy bo‘yidagi o‘tkir qirrali toshlarga toyilib yiqilibdi. Ne ko‘z bilan ko‘rsinki, o‘tkir qirrali toshlar uning oyoqlaridagi suzgich pardalarini kesib yuboribdi. Oyog‘idagi kuchli og‘riqdan naq hushidan ketay debdi va oqsoqlanib, zo‘rg‘a uyiga kirib olibdi. Og‘riq kuchayib, oyoqlarini bosolmay qolibdi.

Bu holatda u shifokorga borolmasligini yaxshi bilardi. Chunki o‘rmon shifokori Tumaxon edi. Bundan bir necha kun u Tumaxonni ham mensimay uni xafa qilgan edi.

G‘oz uychasi yonida nima qilishini bilmay ko‘z yoshi qilib turganida, tepasidan Zag‘izg‘on uchib o‘tibdi. Barchaga mehribon Zag‘izg‘on uning ahvolini ko‘ribdi va sabr qilib turishini aytib, tipratikanning oldiga ketibdi. G‘oz bundan uyalib qolibdi. Chunki u Zag‘izg‘onni ham mensimay, sen qush emas, ninachiga o‘xshaysan, deb ustidan kulgan edi. Zag‘izg‘on tipratikandan bitta igna, o‘rgimchakdan pishiq to‘r ipi olib, shifokor Tumaxonnikiga boribdi. Tumaxon bu voqeani eshitishi bilanoq tibbiy jihozlarini olib, Zag‘izg‘on bilan birgalikda g‘ozning uyiga chopibdi.

Tumaxon g‘ozning oyog‘idagi suzgich pardalarini ohista yuvib, shifobaxsh giyohlarning malhamidan suribdi va tikib qo‘yibdi. G‘oz o‘z ishidan uyalib, ko‘zlaridan yoshlari oqib, qanotlarining patlari titrab debdi:

- Meni kechir, Tumaxon, sen aslida dunyodagi eng chiroyli, xushbichim qushsan, Zag‘izg‘on, sen ham meni kechir. Sen ham qushlaming eng muloyimi, mehribon va beozorisan.

Shunday qilib, g‘oz tez kunlarda sog‘ayib ketibdi. Yo‘lingiz tushib, o‘rmonga borsangiz, uni soy bo‘yida emas, balki o‘rmon ahli, jonivorlar davrasida ko‘rasiz. Chunki u hozir barchaga mehribon, samimiy g‘ozga aylangan.